

DEMOGRAFIK HOLAT

Doimiy aholi soni. Xorazm viloyati doimiy aholisi soni 2020-yil 1-aprel holatiga 1872,2 ming kishini tashkil etib, 2020-yil boshidan 5,7 ming kishiga yoki 0,3 %ga o'sdi. Jumladan, shahar aholisi soni 621,1 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 33,2 %), qishloq aholisi soni 1251,1 ming kishini (66,8 %) tashkil etdi.

E'tibor bering
2020-yil yanvar-mart

Doimiy aholi soni **5,7 ming kishiga** ko'paydi.

Tirik tug'ilganlar soni **7,9 ming nafarni** tashkil etdi.

1,9 ming nafar vafot etganlar qayd etildi.

FHDYO bo'limlarida **5,0 mingta nikoh** va **0,3 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

Xorazm viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar

(Yanvar-mart, ming kishi)


	2019-y.	2020-y.
Doimiy aholi soni	1841,1	1872,2
Tug'ilganlar	7,6	7,9
Vafot etganlar	1,8	1,9
Aholining tabiiy o'sishi	5,8	6,0
Kelganlar	1,7	1,6
Ketganlar	2,0	1,9
Migratsiya saldos	-0,3	-0,3
Tuzilgan nikohlar, ming birlik	5,3	5,0
Nikohdan ajralishlar, ming birlk	0,3	0,3
<i>1000 aholiga nisbatan koeffitsiyentlar, promille</i>		
tug'ilish	16,6	17,0
o'lim	4,1	4,1
aholining tabiiy o'sishi	12,5	12,9
tuzilgan nikohlar	11,8	10,8
nikohdan ajralishlar	0,6	0,6

DEMOGRAFIK HOLAT*(2020-yil yanvar-mart, dastlabki ma'lumot)*


Hududlar kesimida doimiy aholi soni
(1-aprel holatiga)

	2019-y.	2020-y.	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xorazm viloyati	1 841,1	1 872,2	101,7
Urganch sh.	142,1	144,3	101,5
Xiva sh.	91,0	92,4	101,6
<i>tumanlar:</i>			
Bog'ot	161,4	164,3	101,8
Gurlan	145,9	148,1	101,6
Qo'shko'pir	168,9	172,0	101,8
Urganch	194,7	198,4	101,9
Hazorasp	244,3	248,6	101,8
Xonqa	183,2	186,1	101,6
Xiva	142,8	145,2	101,7
Shovot	166,8	169,7	101,7
Yangiariq	114,1	115,9	101,6
Yangibozor	85,9	87,2	101,6


Hududlar kesimida aholi sonining 2019-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati (2020-yil 1-aprel holatiga, % da)



Hududlar kesimida aholi soni (2019-2020-yil yanvar-mart)




**Tumanlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi
(2020-yil 1-aprel holatiga, viloyat jami aholisiga nisbatan, %)**




Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2020-yil 1-aprel holatiga eng ko'p aholi soni Hazorasp tumanida viloyat aholisi sonidagi ulushi 13,3 %ni tashkil etib, keyingi o'rinlarda Urganch tumanida 10,6 %ni, Xonqa tumanida 9,9 %ni va Qo'shko'pir tumanida 9,2 %ni tashkil etgan.

Tug'ilish. 2020-yilning yanvar-mart oylarida 7,9 ming nafar bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 17,0 promilleni tashkil etdi hamda 2019-yilning mos davriga nisbatan 0,4 promillega oshganligi (2019-yilning yanvar-mart oylarida 16,6 promille bo'lgan) kuzatildi.


Shaharlar va tumanlar kesimida tug‘ilganlar soni va tug‘ilish ko‘effitsiyenti (2020-yil yanvar- mart)



Ma'lumot uchun: Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

**Xorazm viloyati bo'yicha tirik tug'ilganlar soni
(yanvar-mart)**

Vafot etganlar. 2020 yilning yanvar-mart oylarida 1,9 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,1 promilleni tashkil etdi.

**Xorazm viloyati bo'yicha vafot etganlar soni
(yanvar- mart)**


Xorazm viloyati bo'yicha vafot etganlar soni va koeffitsiyenti (2020-yil yanvar- mart)




Vafot etganlar soni, ming kishi



O'lim koeffitsiyenti, 1000 aholiga nisbatan, promille




**Shaharlar va tumanlar kesimida go‘daklar o‘limi koeffitsiyenti
(2020-yil yanvar-mart holatiga, 1000 tirik tug‘ilganga nisbatan)**



2020-yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 61,2 %i - qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 9,4 %i - o‘simtalardan, 5,5 %i - ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklaridan, 5,8 %i - nafas olish a‘zolari kasalliklaridan, 4,3%i - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 0,9 %i - yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 12,9 %i - boshqa kasalliklardan vafot etgan.


Ro‘yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 0,1 ming nafarni tashkil etib, ularning 58,6 %i - perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 20,0 %i - nafas olish a‘zolari kasalliklaridan, 12,9 %i - tug‘ma anomaliyalardan, 4,3 %i - yuqumli va parazitar kasalliklardan, 0,7 %i - ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklaridan va 3,5 %i - boshqa kasalliklardan vafot etgan.

**Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi
(2020-yil yanvar-mart holatiga, jami vafot etganlarga nisbatan,%da)**



- Qon aylanish tizimi kasalliklari
- Boshqa kasalliklardan
- Ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan
- Yuqumli va parazitlar kasalliklaridan
- O'simalardan
- Baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan
- Nafas olish a'zolari kasalliklaridan

**O'lim koeffitsiyentlari to'g'risida ma'lumot
(2020 yil yanvar-mart)**



Tabiiy o'sish. 2020-yilning yanvar-mart oylarida aholining tabiiy o'sishi 6,0 ming kishini tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 0,3 ming kishiga (2019-yilning yanvar-mart oylarida 5,7 ming kishi bo'lgan) o'sgan.


Tabiiy o'sish — 6,0 ming kishi.



Nikoh. 2020-yilning yanvar-mart oylarida FHDYO bo'limlari tomonidan 5,0 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 10,8 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2019-yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Bog'ot tumani (9,3%), Xonqa tumani (2,6%), Xiva shahri (2,2 %) ga to'g'ri kelmoqda.


Xorazm viloyati bo'yicha tuzulgan nikohlar soni to'g'risida ma'lumot (yanvar- mart)



Nikohdan ajralishlar. 2020-yilning yanvar-mart oylarida FHDYO bo'limlari tomonidan 0,3 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti 0,6 promilleni tashkil etdi.


Shaharlar va tumanlar kesimida nikoh tuzganlar va nikohdan ajrashganlar koeffitsiyenti

(2020-yil yanvar- mart holatiga, 1000 aholiga nisbatan, promille)



Ajrimlar sonida 2019 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Urganch shahar (5,6 %) va Hazorasp (12,9 %) tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Xorazm viloyati bo'yicha nikohdan ajrashganlar soni to'g'risida ma'lumot (yanvar- mart)



Migratsiya. 2020-yil yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 1,6 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 1,9 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosini minus 0,3 ming kishi bo'lib, 2019-yilning mos davrida minus 0,3 ming kishi bo'lgan.

Aholi migratsiyasi

ming kishi

	2019-yil yanvar-mart	2020-yil yanvar- mart
Ko'chib kelganlar	1,7	1,6
Ko'chib ketganlar	2,0	1,9
Migratsiya saldosini	-0,3	-0,3

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Hazorasp (minus 0,1 ming kishi), Shovot (minus 0,1 ming kishi), Bog'ot (minus 0,1 ming kishi) tumanlarida qayd etildi.

Migratsiya saldosining ijobiy darajasi Urganch tumanida (plus 0,2 ming kishi) kuzatildi.

Xorazm viloyati statistika boshqarmasi
Demografiya va mehnat
statistikasi bo'limi.